

YASHIL MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI UGLEROD NEYTRAL IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI

TDTU talabasi

Qodirova Munisa G'ayrat qizi

ANNOTATSIYA: Hozirgi globallashuv sharoitida iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar va tabiiy resurslarning cheklanganligi jahon iqtisodiyoti oldida turgan eng muhim masalalardan biriga aylangan. Mazkur maqolada yashil moliya instrumentlari orqali uglerod neytral iqtisodiyotga o'tish strategiyalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida yashil obligatsiyalar, barqaror kreditlar, ekologik investitsiya fondlari hamda soliq va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining iqtisodiy va ekologik samaradorligi o'rganiladi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashil moliyaning milliy iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yashil moliya, uglerod neytral iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil obligatsiyalar, barqaror kreditlar, ekologik investitsiyalar, yashil iqtisodiyot, moliyaviy rag'batlantirish

Аннотация: В условиях современной глобализации изменение климата, экологические проблемы и ограниченность природных ресурсов стали одними из наиболее актуальных вызовов, стоящих перед мировой экономикой. В решении данных проблем важную роль играет внедрение принципов устойчивого развития, основанных на формировании зелёной экономики и использовании инструментов зелёного финансирования. В данной статье научно-теоретически и практически анализируются стратегии перехода к углеродно-нейтральной экономике с использованием инструментов зелёного финансирования.

В рамках исследования рассматривается экономическая и экологическая эффективность зелёных облигаций, устойчивых кредитов, экологических

инвестиционных фондов, а также налоговых и финансовых механизмов стимулирования. Кроме того, на основе опыта развитых стран комплексно анализируется влияние зелёного финансирования на развитие национальной экономики.

Ключевые слова: зелёное финансирование, углеродно-нейтральная экономика, устойчивое развитие, зелёные облигации, устойчивые кредиты, экологические инвестиции, зелёная экономика, финансовое стимулирование

Abstract: In the context of modern globalization, climate change, environmental challenges, and the limited availability of natural resources have become some of the most pressing issues facing the global economy. Addressing these challenges requires the implementation of sustainable development principles, particularly through the development of a green economy and the adoption of green finance instruments. This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of strategies for transitioning to a carbon-neutral economy through the use of green finance instruments.

The study examines the economic and environmental effectiveness of green bonds, sustainability-linked loans, green investment funds, as well as tax and financial incentive mechanisms. In addition, based on the experience of developed countries, the impact of green finance on national economic development is comprehensively analyzed.

Keywords : green finance, carbon-neutral economy, sustainable development, green bonds, sustainability-linked loans, green investments, green economy, financial incentives

Hozirgi globallashuv sharoitida iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar va tabiiy resurslarning cheklanganligi jahon iqtisodiyoti oldida turgan eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, energiya iste'molining ortishi va uglerod chiqindilarining ko'payishi global ekologik muvozanatga jiddiy tahdid solmoqda. Shu sababli, zamonaviy iqtisodiy rivojlanish modeli ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni talab etmoqda.

Mazkur sharoitda barqaror rivojlanish konsepsiyasi va yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yangi iqtisodiy yondashuvlar shakllanmoqda. Ushbu yondashuvlarning muhim tarkibiy qismi sifatida yashil moliya instrumentlari alohida ahamiyat kasb etadi. Yashil moliya moliyaviy resurslarni ekologik toza, energiya tejankor va uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan loyihalarga yo'naltirish orqali iqtisodiy o'sish va atrof-muhit muhofazasini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi ham global ekologik chaqiriqlardan chetda qolmagan holda, 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasida yashil iqtisodiyot va barqaror moliya tizimini rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan. Ushbu strategiyada qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va uglerod izini kamaytirish vazifalari belgilangan. Shu nuqtai nazardan, yashil moliya instrumentlarining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Yashil moliya (green finance) – bu moliyaviy resurslarni ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy faoliyat va loyihalarga yo'naltirishga xizmat qiluvchi moliyaviy mexanizmlar majmuasidir. Ushbu tushuncha dastlab ekologik loyihalarni moliyalashtirish zarurati natijasida shakllangan bo'lsa, bugungi kunda u milliy va global moliya tizimining muhim tarkibiy qismiga aylangan.

Yashil moliyaning shakllanishiga quyidagi omillar asosiy ta'sir ko'rsatdi:

- global iqlim o'zgarishi va ekologik inqirozlarning kuchayishi;
- energiya resurslarining cheklanganligi;
- ekologik xavflarning iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'siri;
- investorlar va jamiyatning ekologik mas'uliyatli loyihalarga bo'lgan talabining ortishi.

Yashil moliya barqaror rivojlanish konsepsiyasining moliyaviy asosini tashkil etadi va iqtisodiy o'sish bilan ekologik xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Amaliyotda yashil moliya quyidagi asosiy instrumentlar orqali amalga oshiriladi:

Yashil obligatsiyalar (Green Bonds) – ekologik loyihalarni moliyalashtirish maqsadida chiqariladigan qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, ular orqali qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi va ekologik infratuzilma loyihalariga investitsiyalar jalb qilinadi.

Barqaror kreditlar (Sustainability-Linked Loans) – kredit shartlari loyihaning ekologik yoki ijtimoiy ko‘rsatkichlariga bog‘langan bo‘lib, belgilangan barqarorlik mezonlariga erishilganda foiz stavkalarining pasaytirilishini nazarda tutadi.

Ekologik investitsiya fondlari (Green Investment Funds) – turli yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun jamg‘arilgan investitsiya resurslarini boshqaruvchi maxsus fondlar hisoblanadi. Ushbu fondlar xatarlarni diversifikatsiya qilish va investitsion samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Soliq va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari – davlat tomonidan yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Uglerod neytral iqtisodiyot – bu ishlab chiqarish va iste‘mol jarayonida atmosferaga chiqarilayotgan uglerod chiqindilarining miqdori ularni kompensatsiya qilish yoki kamaytirish orqali muvozanatlashtirilgan iqtisodiy tizimdir. Bunday iqtisodiyotda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya tejamkor texnologiyalar va ekologik innovatsiyalar asosiy rol o‘ynaydi.

Yashil moliya instrumentlari uglerod neytral iqtisodiyotga o‘tish jarayonida moliyaviy asos yaratib, ekologik loyihalarning iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishini ta‘minlaydi.

So‘nggi o‘n yilliklarda rivojlangan mamlakatlarda yashil moliya instrumentlari davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Global iqlim o‘zgarishi va ekologik xavflarning kuchayishi hukumatlarni iqtisodiy rivojlanishning an‘anaviy modelidan voz kechib, barqaror va ekologik yo‘naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishga undadi. Shu jarayonda yashil moliya iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni uyg‘unlashtiruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

Rivojlangan mamlakatlarda yashil moliya siyosati, avvalo, davlat tomonidan normativ-huquqiy bazaning yaratilishi, moliya bozorlarida yashil instrumentlarning

joriy etilishi va xususiy sektorni rag‘batlantirish orqali amalga oshirilmoqda. Mazkur siyosatning asosiy maqsadi ekologik xavflarni kamaytirish bilan birga, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdan iboratdir.

Yevropa Ittifoqi yashil moliya va uglerod neytral iqtisodiyotga o‘tish borasida dunyodagi yetakchi mintaqalardan biri hisoblanadi. “Yevropa yashil kelishuvi” (European Green Deal) doirasida 2050-yilga qadar uglerod neytral iqtisodiyotga erishish asosiy strategik maqsad sifatida belgilangan. Ushbu maqsadga erishishda yashil obligatsiyalar, barqaror investitsiyalar va ekologik moliyalashtirish mexanizmlari keng qo‘llanilmoqda.

Yevropa mamlakatlarida yashil obligatsiyalar bozorining jadal rivojlanishi qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi va ekologik transport loyihalarini moliyalashtirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqida “yashil taksonomiya” tizimi joriy etilib, ekologik loyihalarining aniq mezonlar asosida tasniflanishi ta’minlangan. Bu holat investorlar uchun shaffoflikni oshirib, moliyaviy resurslarning maqsadli yo‘naltirilishiga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotga o‘tish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Milliy rivojlanish strategiyalarida ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi va uglerod chiqindilarini kamaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, 2030-yilgacha mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va yashil investitsiyalarni jalb qilish muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Mazkur jarayonda yashil moliya instrumentlari milliy iqtisodiyotda ekologik loyihalarini moliyalashtirishning muhim vositasi sifatida shakllanmoqda. Davlat tomonidan energiya tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya va ekologik infratuzilma loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilmoqda.

O‘zbekistonda yashil moliya instrumentlari asosan qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi va ekologik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan. So‘nggi yillarda ayrim tijorat banklari va moliya institutlari tomonidan

yashil kreditlash dasturlari joriy etilib, ekologik mezonlarga mos loyihalarga imtiyozli moliyaviy shartlar taklif etilmoqda.

Shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik doirasida yashil investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa yashil moliya bozorining bosqichma-bosqich shakllanishiga va milliy moliya tizimining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil moliya instrumentlari uglerod neytral iqtisodiyotga o'tishda muhim moliyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tajribalar O'zbekiston uchun quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir:

- yashil moliya bozorini shakllantirish uchun normativ-huquqiy bazani mustahkamlash;
- davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish;
- yashil obligatsiyalar va barqaror kreditlar orqali investitsiyalarni jalb qilish;
- ekologik loyihalar uchun moliyaviy va soliq rag'batlarini kengaytirish.

Global tajribani milliy sharoitga moslashtirish orqali O'zbekiston iqtisodiyotida uglerod neytral rivojlanishga erishish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkoniyatlari kengayadi.

Xulosa

Mazkur maqolada yashil moliya instrumentlari orqali uglerod neytral iqtisodiyotga o'tish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari yashil moliyaning barqaror rivojlanish konsepsiyasida muhim moliyaviy mexanizm ekanligini ko'rsatdi. Yashil obligatsiyalar, barqaror kreditlar va ekologik investitsiyalar uglerod chiqindilarini kamaytirish hamda ekologik loyihalarni moliyalashtirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi yashil moliya instrumentlarining iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirish imkonini berishini tasdiqlaydi. Ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish O'zbekistonda uglerod neytral iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, yashil moliya

instrumentlarini rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va ekologik xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yevropa Ittifoqi. European Green Deal. Brussels: European Commission, 2019.
2. Xitoy Xalq Respublikasi. Green Finance Guidelines. Beijing: People's Bank of China, 2018.
3. United Nations Environment Programme (UNEP). Green Finance and Investment. Nairobi: UNEP, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasi. T.: O'zbekiston, 2021.
5. World Bank. Green Finance Global Practice. Washington, DC: World Bank, 2020.
6. Yaponiyaning Moliyaviy Xizmati Vazirligi. Japan's Green Bond Market. Tokyo: Ministry of Finance, 2019.
7. Janubiy Koreya Hukumatining Yashil Moliyalashtirish Strategiyasi. Seoul: Ministry of Economy and Finance, 2020.
8. OECD. Green Finance and Investment: Mobilising Bond Markets for a Low-Carbon Transition. Paris: OECD Publishing, 2017.